

## **“Kelajak soati” darsining 5-8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi**

### **31-mavzu: “Milliy o‘zlik”**

**Annotatsiya.** Ushbu dars ishlanmasi umumta’lim maktablarining 5-8-sinflari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash, o‘z xalqiga bo‘lgan mehr va hurmatni shakllantirishga qaratilgan. Dars davomida o‘quvchilar o‘z millatining urf-odatlari, an‘analari, qadriyatlarini, milliy bayramlari hamda ona tilining ahamiyati haqida sodda va tushunarli misollar orqali bilim oladilar. Mavzu bolalarda Vatanga sadoqat, ajdodlarga hurmat, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini rivojlantiradi.

#### **Aniq maqsadlar:**

1. O‘quvchilarda milliy o‘zlik tushunchasining mohiyatini yosh xususiyatlariga mos holda shakllantirish hamda uning tarkibiy qismlari (til, urf-odat, qadriyat va an‘analar) haqida dastlabki ilmiy tasavvurlarni hosil qilish.

2. 5-8-sinf o‘quvchilarida milliy madaniyat va merosga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirish, ularni kundalik hayot misollarida anglash va izohlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

3. O‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish orqali milliy qadriyatlarni hurmat qilish, ularni saqlash va davom ettirish zarurati haqida mantiqiy fikrlashga yo‘naltirish.

4. Milliy o‘zlikni anglash asosida o‘quvchilarda vatanparvarlik, fuqarolik mas‘uliyati va milliy g‘urur tuyg‘ularini ilmiy-pedagogik yondashuv asosida shakllantirish.

#### **Darsdan keyin kutiladigan natijalar:**

##### **Aqliy va tushunchaviy:**

Milliy o‘zlik – bu shaxsning o‘z millatiga mansubligini anglashidir. U til, urf-odat, an‘ana, qadriyat va tarixiy xotira kabi tarkibiy qismlardan iborat. O‘quvchilar ushbu tushunchani sodda misollar orqali (ona tili, milliy bayramlar, kiyimlar) anglay boshlaydilar.

Milliy o‘zlik tushunchasi “Vatan”, “madaniyat”, “qadriyat”, “til” kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq ekani ko‘rsatiladi. O‘quvchilar bu tushunchalar o‘rtasidagi aloqani anglab, milliy o‘zlik keng va ko‘p qirrali tushuncha ekanligini tushunib yetadilar.

##### **Hissiy va qadriy:**

Vatanga muhabbat hissi – o‘quvchilarda o‘z yurtiga mehr, sadoqat va uni qadrlash tuyg‘ularini shakllantirish.

Vatanini sevish orqali milliy o‘zligini chuqurroq anglash.

Milliy g‘urur va iftixor – o‘z xalqining tarixi, urf-odatlarini va yutuqlari bilan faxrlanish, ularga hurmat bilan qarash va ularni asrab-avaylashga intilish.

Qadriyatlarga hurmat va sadoqat – milliy an’analar, urf-odatlar va ma’naviy merosni qadrlash, ularga rioya qilish hamda ularni kelajak avlodga yetkazish zarurligini his etish.

**Amaliy ko‘nikmalar:**

Milliy qadriyatlarni ifodalash ko‘nikmasi – o‘quvchilar milliy bayramlar, urf-odatlar va an’analar haqida sodda tarzda og‘zaki va yozma fikr bildira olish, misollar keltira olish.

Madaniy xulq-atvorni namoyon etish ko‘nikmasi – kundalik hayotda kattalarga hurmat ko‘rsatish, milliy odob-axloq qoidalariga amal qilish va ijobiy xulqni amalda qo‘llash.

**Ijtimoiy-pedagogik:**

Mazkur mavzu 5-8-sinf o‘quvchilarini jamiyatga moslashuv jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy o‘zlikni anglash bolalarda ijtimoiy identifikatsiya, ya’ni o‘zini muayyan millat va jamiyat a’zosi sifatida his etishning dastlabki bosqichini shakllantiradi.

Ijtimoiy jihatdan, mavzu o‘quvchilarda jamiyatda qabul qilingan me’yorlar, milliy urf-odatlar va an’analarga hurmat ruhini tarbiyalaydi.

**Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.  
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

**Davomiyligi:** 45 daqiqa.

## I. KIRISH QISMI (10 daqiqa)

*O'qituvchi sinfga milliy matolardan tikilgan libosda kirib keladi (yoki libosida milliylikka urg'u berilgan bo'lishi kerak).*

**O'qituvchi:** Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar. Bugun sizlar bilan gaplashadigan mavzuyimizga o'tishdan avval bir tasavvurimizni ishga solamiz. Ayting-chi, bir kuni ertalab turib kim ekaningizni eslay olmasangiz, nima bo'ladi?

Ismingiz bor, lekin u sizga begonaning ismiddek tuyuladi. Tilingiz bor, lekin unda gapira olmaysiz. Bayramlar bor, lekin ular sizga quvonch bag'ishlamaydi. Siz yashayapsiz, lekin o'zingizning hayotingizda emas. Shunchaki, savollaringiz ko'paygan. Eng katta savol esa: MEN KIMMAN?

Ayting-chi, bu holatga tushishni istarmidingiz?

*O'quvchilar qisqa javoblar beradilar.*

**O'qituvchi:** Inson o'zini yo'qotsa, hamma narsani yo'qotadi. Chunki insonni inson qiladigan narsa bu uning o'zligi.

Adabiyotda ham bunga juda ta'sirli misol bor. Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asarida Jo'lomon obrazi bor. Uni dushmanlar asir qilib, boshiga qaynoq teri yopishtiradi. Natijada u hamma narsani unutadi. O'z ismini ham, o'tmishini ham, kim ekanini ham. U endi o'zini anglamaydi, boshqalarning buyrug'i bilan yashaydigan qulga aylanadi. Eng og'iri, u hatto o'z onasini ham tanimaydi va unga qarshi qo'l ko'taradi.

*Pauza.*

Nega bunday bo'ldi? Chunki u o'zligini yo'qotdi. Demak, o'zlik bu insonni inson qiladigan eng asosiy kuch.

Endi savol, bizning o'zligimiz nimadan iborat?

*Qisqa pauza.*

Bu tilimiz, tariximiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimiz birlashib hayotimizga mazmun beradigan va bizni to'g'ri yo'lga boshlaydigan kuchdir.

Bugun sizlar bilan milliy o'zlik nima va u nega muhim degan savolga javob izlaymiz.

Bugun mamlakatimizda milliy o'zlikni asrash va rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. Prezidentimiz boshchiligida ona tilimizni rivojlantirish, tarixiy merosni asrash, milliy qadriyatlarni tiklash va madaniyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Keling, shu haqda tayyorlangan qisqa videoni tomosha qilamiz.

**Vizual kontent**

**Milliy o'zlik – bizning ildizimiz!**

[https://t.me/kelajaksoati\\_rasmiy/535](https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/535)

**O‘qituvchi:** Demak, milliy o‘zlik bu faqat o‘tmish emas. U bugun ham yashayapti va rivojlanayapti. Eng muhimi, u sizlar orqali davom etadi. Xo‘sh, biz o‘zligimizni qanday saqlaymiz va rivojlantiramiz?

Keling, endi shu savolga birgalikda javob izlaymiz.

## II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

**O‘qituvchi:** Hozir inson o‘zligini yo‘qotsa, nima bo‘lishini his qilish uchun kichik tajriba qilib ko‘ramiz. Ya’ni sizlar bilan “Yo‘qolgan so‘z” degan o‘yinni o‘ynaymiz.

Men bir nechta oddiy, lekin biz uchun juda yaqin so‘zlarni aytaman. Sizlar esa shu so‘zlarni ishlatmasdan ularning ma’nosini tushuntirib berishingiz kerak. Istasangiz imo-ishora, harakatlar bilan, istasangiz boshqa so‘zlar orqali izoh berib, toki sinfdagilar so‘zni topmagunicha tushuntirib berishga harakat qilasiz.

*O‘qituvchi 3-4 o‘quvchini doskaga chiqaradi va alohida so‘zlar beradi:*

“ona”,

“Vatan”

“do‘st”

“bayram”

*O‘quvchilar so‘zni ishlatmasdan tushuntirishga harakat qiladi, sinf esa topadi. O‘yin tugagach, o‘qituvchi sinfga savol beradi:*

Qiyin bo‘ldimi?

*O‘quvchilar javob beradi.*

**O‘qituvchi:** Nega qiyin bo‘ldi? Axir siz bu tushunchalarni yaxshi bilasiz-ku.

*Pauza.*

Chunki ba’zi so‘zlar bor, ularni oddiy qilib tushuntirib bo‘lmaydi. Ular faqat so‘z emas, ularning ichida hissiyot, tarix, xotira yashaydi.

Endi tasavvur qiling, shu so‘zlar umuman yo‘qolib qolsa-chi? Biz ularni ishlatmasak, asta-sekin unutib borsak-chi?

*Qisqa pauza.*

Chingiz Aytmatovning asaridagi Jo‘lomon ham aynan shunday holatga tushgan edi. U hamma narsani unutdi: yuqorida sizlar o‘yinda tushuntirgan so‘zlarni ham. Natijada Vataniga va onasiga qarshi bordi.

Demak, o‘zlik yo‘qolishi birdaniga emas, balki mayda-mayda narsalardan boshlanadi. So‘zlardan, odatlardan, xotiralardan.

Sizningcha, agar bir xalq o‘ziga xos so‘zlarini, tushunchalarini ishlatmay qo‘ysa, nima bo‘ladi?

*O‘quvchilarning fikrlari eshitiladi.*

**O‘qituvchi:** Demak, o‘zlikni saqlash uchun avval uni tushunish kerak. Xo‘sh, milliy o‘zlik aslida nimadan iborat?

*Doskaga yozadi.*

### **Milliy o‘zlik — bu bizning kimligimiz**

**O‘qituvchi:** Siz o‘zingizni notanish odamlarga qanday tanitasiz? Ismingizni aytasiz, qayerdan ekaningizni aytasiz-a? Lekin o‘ylab ko‘ring, bu sizni to‘liq ifodalaydimi? Agar umuman notanish odam faqat gapirishingiz va o‘zingizni tutishingizga qarab sizni baholasa, siz haqingizda qanday fikrga keladi?

**O‘quvchilar:** Gaplashishimga qarab millatimni biladi, odobimga qarab otanom haqida xulosa qiladi...

**O‘qituvchi:** To‘g‘ri. Chunki insonning kimligi hujjatlarda emas, uning kundalik hayotida namoyon bo‘ladi. Milliy o‘zlik ham shunday. Bu siz qanday gaplashishingizda, qanday salom berishingizda, qanday fikr yuritishingizda ko‘rinadi. Bu siz o‘ylamasdan qiladigan odatlaringizda ham ko‘rinadi.

*O‘qituvchi doskaga yozadi.*

### **Til – milliy o‘zlikning yuragi**

**O‘qituvchi:** Endi o‘ylab ko‘ring. Siz kun davomida nimadan eng ko‘p foydalanasiz? Gaplashishda, fikrlashda, hatto ichingizda o‘zingiz bilan gaplashganingizda ham nimadan foydalanasiz?

**O‘quvchilar:** Tildan. Ona tilimizdan.

**O‘qituvchi:** To‘g‘ri. Til bu oddiy vosita emas. Bu sizning fikringiz qanday shakllanishini, ya‘ni tafakkuringizni belgilaydigan omil.

Hozir kichik sinov qilamiz. Men sizga bir nechta so‘zlarni aytaman, siz shu so‘zlarni eshitganingizda xayolingizga kelgan birinchi narsani aytasiz. Masalan, “ona”, “Vatan”, “uy”, “bayram”.

*O‘quvchilar javob beradi, turli hissiy va obrazli javoblar chiqadi.*

**O‘qituvchi:** Ko‘rdingizmi, bular oddiy so‘zlar emas. Har biringizda o‘ziga xos va turli hislarni uyg‘otdi. Chunki so‘zda xotira, his, tajriba yashaydi.

Shu o‘rinda milliy o‘zligimizning asoslaridan biri bo‘lgan xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilamiz. Tasavvur qilyapsizmi, bundan minglab yillar ilgari ajdodlarimiz yaratgan kontentlar – dostonlar, ertaklar, qo‘shiqlar ham aynan shu tilimizda yaratilgan va ular tilimiz vositasida bugungi kunda bizgacha yetib kelgan. Biz ularni eshitamiz va o‘sha ajdodlarimiz kabi ta’sirlanamiz.

Hozir esa milliy doston qahramonlari bizning kunlarga kelib qolsa, nima bo‘ladi, degan savolga javob beradigan videokontentni tomosha qilamiz.

### **Vizual kontent**

**Xalq dostonlari qahramonlari bizning zamonimizda**

[https://youtu.be/IWAlAU\\_NBX4](https://youtu.be/IWAlAU_NBX4)

**O‘qituvchi:** Albatta, ular sizga begona emas. Ularning nasihatlari milliy o‘zligimizning ajralmas qismidir.

*O‘qituvchi doskaga yozadi.*

### **Tarix – bu bizning ildizimiz**

**O‘qituvchi:** Siz daraxtni ko‘rgansiz. U baland o‘sadi, meva beradi. Lekin agar uning ildizi bo‘lmasa, u yashay oladimi?

**O‘quvchilar:** Yo‘q.

**O‘qituvchi:** Xuddi shunday, tarix bu xalqning ildizi. Bu faqat sanalar emas, biz aslida kim bo‘lganimiz haqidagi hikoyadir.

Hozir Sirojiddin bilan qadimiy bozorga boramiz va milliy buyumlarimiz haqida kontent tomosha qilamiz. Videoni tomosha qilayotganda siz ham bu buyumlar nomini tez topishga harakat qiling.

### **Vizual kontent**

**Kim topqirroq: Kamronxo‘jami yoki Sirojiddin?**

<https://youtu.be/Ne11tkBzdM>

**O‘qituvchi:** Buyumlarning nechtasini tanidingiz? Qaysilari sizga umuman notanish bo‘ldi?

*O‘quvchilar javob beradi.*

**O‘qituvchi:** Agar biz bu narsalarni bilmasak, ularning nomini unutib qo‘ysak, asta-sekin so‘z va tarix yo‘qoladi. Demak, tarixni bilish bu o‘tmishni eslashgina emas, o‘z ildizingizdan uzilmay, uni mahkam ushlab turishdir.

*O‘qituvchi doskaga yozadi.*

### **Milliy o‘zlik – bu kundalik hayotimiz**

**O‘qituvchi:** Ko‘pchilik milliy o‘zlik deganda muzey yoki tarixiy joylarni tasavvur qiladi. Lekin aslida milliy o‘zlik sizning kundalik hayotingizda yashaydi.

Bugun ertalab uyg‘ongandan beri qilgan ishlaringizni eslang. Kattalarga salom berdingizmi, milliy yeguliklar bilan (non, choy, suzma yoki qaymoq) nonushta qildingizmi, kim bilandir odob bilan muomala qildingizmi?

*O‘quvchilar tasdiqlaydi.*

**O‘qituvchi:** Mana shu oddiy harakatlarning o‘zi milliy o‘zlikdir. Ya’ni bizning kundalik turmush tarzimizda o‘zligimiz yashaydi. Hozir shu o‘zligimizning bir bo‘lagi bo‘lgan milliy kulolchilik san’atimiz haqida video tomosha qilamiz.

### **Vizual kontent**

**Rishtonlik mashhur kulol xonadonidamiz**

<https://youtu.be/i7fKe3B42Lw>

**O‘qituvchi:** Videoda ko‘rganingiz oddiy ishmi yoki san’atmi?

*O‘quvchilar javob beradi.*

**O‘qituvchi:** Albatta, kulolchilik – bu san’at. Milliy san’at. Asosan bizlarda bor, shuning uchun dunyoning qaysi yerida ushbu kulolchilik buyumlarini ko‘rsak, uyimiz, ota-onamiz, yaqinlarimiz esga tushadi. Agar kulolchilik va umuman milliy hunarmandchiligimiz to‘xtasa, biz shu yoqimli hisdan mahrum bo‘lamiz.

*O‘qituvchi doskaga yozadi.*

### **Milliy o‘zlik – bu faxr va mas’uliyat**

**O‘qituvchi:** Ko‘pchiligimiz “men o‘zbekistonlikman” deb faxr bilan aytamiz. Lekin bu shunchaki so‘zmi yoki u bilan birga mas’uliyat ham bormi?

**O‘quvchilar:** Mas’uliyat ham bor.

**O‘qituvchi:** To‘g‘ri. Chunki siz qanday bo‘lsangiz, boshqalar siz orqali butun millat haqida fikr qiladi.

Hozir tezkor o‘yin o‘ynaymiz.

Tasavvur qiling, siz chet eldasiz. Kimdir sizdan: **“O‘zbekiston qanday mamlakat?”** deb so‘radi. Siz 10 soniya ichida tez javob berishingiz kerak. Shunda nima deysiz?

*O‘quvchilar qisqa javob beradi.*

**O‘qituvchi:** Aziz o‘quvchilar, darsimiz boshida biz dostonlar qahramonlari orqali o‘zligimizni tanigan edik. Yana san’at turlaridan multfilmlar, filmlar, dublyajda ham bizning milliy o‘zligimiz ko‘rinadi. Hozir milliy, o‘zbekona multfilmlar olib, o‘ziga xos qahramonlarni yaratayotgan rejissyor bilan suhbatga quloq tutamiz. U personajlar o‘zligini qanday belgilar orqali ko‘rsatishini aytib beradi.

### **Vizual kontent**

**Multfilmlar qanday ishlab chiqariladi? – Abdulatif Haydarov**

<https://youtu.be/Zzo5ZdMOPUI>

**O‘qituvchi:** Demak, milliy o‘zlik bu faqat gap emas, amal. Bu o‘z ona tilida gaplashish, tarixini bilish, milliy san’ati va madaniyatini o‘rganish, xorijda o‘z mamlakatini yaxshi tomondan ko‘rsatish va shunga o‘xshash yaxshi ishlardir.

### **III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)**

**O‘qituvchi:** Bugun biz juda muhim narsani tushundik. Inson o‘zligini yo‘qotsa, hamma narsasini yo‘qotadi. Biz buni Jo‘lomon misolida ham ko‘rdik.

Siz bugungi darsdan o‘zingizga qanday xulosa chiqardingiz? Ichingizda nimadir o‘zgardimi, yangi fikrlar paydo bo‘ldimi?

*O‘quvchilardan 2-3 ta fikr olinadi.*

**O'qituvchi:** Demak, eng muhim xulosa shuki, milliy o'zlik bu bizga tug'ilganimizdanoq berilgan o'xshashi yo'q kod. Uni har kuni o'zimiz bilan olib yuramiz. Har bir gapimizda, har bir muomalamızda, har bir tanlovimizda u namoyon bo'ladi.

Agar biz tilimizni e'zozlasak, u yashaydi. Agar biz tariximizni bilsak, u davom etadi. Agar biz madaniyatimizni rivojlantirsak, o'zimiz ham rivojlanamiz.

Endi sizlarga muhim vazifa beraman. Bu oddiy uyga vazifa emas, bu kichik chaqiriq.

Bugundan boshlab har biringiz o'zingizga savol berasiz: men bugun milliy o'zligim uchun nima qildim?

Ota-onangizdan bitta qadimiy odat haqida so'rang. Biror milliy so'z yoki iborani o'rganing va ishlating. Yoki muomalangizga e'tibor bering.

Keyingi darsda kim nima qilganini qisqa aytib beradi. Bu kichik qadamlar, lekin katta o'zgarishlar aynan shundan boshlanadi.

Unutmang, siz oddiy o'quvchi emassiz. Siz o'z millatingizning buguni va ertasisiz. Siz qanday bo'lsangiz, kelajak ham shunday bo'ladi.

Shuning uchun o'zingizni taning, o'zingizni asrang va o'zingizni rivojlantiring. Chunki milliy o'zlik aynan sizdan boshlanadi.